



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.05.2025 yildagi PF-76-son

Кучга кириш санаси

06.05.2025

Қўшимча ахборот

Улашиш

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH VA TA'LIM XIZMATLARI KO'RSATISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA QO'SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA

Ta'lim tashkilotlarida o'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini joriy etish hamda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsad

1. Ushbu Farmonning asosiy maqsadi ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini tashqi baholash mexanizmlarini belgilash hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish hisoblanadi.

II. Ta'lim sifatini tashqi baholash tizimini isloh qilish

2. "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisi negizida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) tashkil etilsin.

Belgilansinki, Agentlik o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, malakalarni baholash sohalarida tashqi sifati nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

3. Quyidagilar:

Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining asosiy faoliyat yo'nalishlari [1-ilovaga](#) muvofiq;

Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi faoliyatini tashkil etish tartibi [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

III. Ta'lim sifatini ta'minlash

4. Belgilansinki, Agentlik ta'lim sifatini tashqi baholashni quyidagi shakllarda amalga oshiradi:

(a) idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini (keyingi o'rinlarda — ta'lim tashkilotlari) kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazadi. Bunda:

(i) kompleks davlat akkreditatsiyasi har 5 yilda ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalari asosida o'tkaziladi;

(ii) maxsus davlat akkreditatsiyasi kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'tkaziladi;

(b) ta'lim tashkilotini xavfni tahlil qilish (murojaatlar, so'rovnoma asosida aniqlangan kamchiliklar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar materiallari va boshqa ishonchli ma'lumotlar) asosida navbatdan tashqari o'rganadi. Bunda:

(i) xavfni tahlil qilish jarayonida kamchiliklar aniqlanganda Agentlik ta'lim tashkilotiga bu haqda taqdimnoma kiritadi hamda kamchiliklarni bartaraf etish uchun muddat belgilaydi;

(ii) kamchiliklarning belgilangan muddatda bartaraf etilmaganligi ta'lim tashkilotini navbatdan tashqari kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga asos bo'ladi hamda bu haqda

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xabardor qilinadi.

Bunda davlat akkreditatsiyasi va xavfni tahlil qilish natijasi bo'yicha Agentlik taqdimnomasida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish ta'lim tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi;

(v) ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya va ilmiy-tadqiqot jarayonlari sifatini qiyosiy taqqoslash asosida ularning milliy reytingini yuritadi;

(g) ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari bilim va ko'nikmasiga baho berish va ularning zamonaviy mehnat bozori talablariga mosligini o'rganish maqsadida Umummilliy ish beruvchilar so'rovnomasini o'tkazadi;

(d) ta'lim tashkilotlari o'quvchi va talabalarining ta'lim sifati bo'yicha fikrlarini o'rganishga qaratilgan Umummilliy talabalar so'rovnomasini o'tkazadi.

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

(a) ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi to'lov asosida amalga oshiriladi hamda undan tushgan mablag'lar akkreditatsiyani o'tkazish bilan bog'liq (jumladan, jalb qilingan mutaxassislar mehnatiga haq to'lash) xarajatlarni qoplashga yo'naltiriladi;

(b) Agentlik respublika hududida faoliyatini amalga oshirish huquqi beriladigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi hamda ularning reyestrini yuritadi. Bunda mazkur reyestrda kiritilgan tashkilotlar tomonidan ta'lim dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazish tavsiyaviy xarakterga ega bo'ladi;

(v) 2025-yilga qadar bitiruvchisi bo'lmagan hamda akkreditatsiyadan o'tmagan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari mazkur tashkilotni kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish davrida maxsus davlat akkreditatsiyasidan ham o'tkaziladi;

(g) ta'lim tashkilotining kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tmaganligi yoki o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni belgilangan muddatlarda bartaraf etmaganligi litsenziya talab va shartlarini qo'pol ravishda buzish deb baholanadi hamda Agentlik litsenziyani bekor qilish masalasini hal etish uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdimnoma kiritadi;

(d) kompleks davlat akkreditatsiyasi natijalariga ko'ra muayyan ta'lim dasturida aniqlangan qo'pol kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan taqdirda ushbu ta'lim dasturi bo'yicha o'quv faoliyatini davom ettirish va qabulni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi;

(e) litsenziyasi bekor qilingan ta'lim tashkiloti yoki akkreditatsiyasi bekor qilingan ta'lim dasturida tahsil olayotgan talabalar o'qishini davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko'chirish Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

IV. Ta'lim xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish

6. Belgilansinki, 2025-yil 1-iyuldan boshlab yangi tashkil etiladigan ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi:

(a) birinchi bosqichda faoliyatni boshlash uchun o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari o'rnatilgan tartibda litsenziyalanadi, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ta'lim tashkilotlari xabardor qilish tartibida tashkil etiladi;

(b) ikkinchi bosqichda ta'lim tashkilotlarining kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladigan ta'lim dasturlari (kasblar, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar) maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkaziladi. Bunda:

(i) maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim oluvchilarni o'qishga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi;

(ii) maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tmasdan qabul jarayonini amalga oshirish litsenziya talab va shartlarini qo'pol ravishda buzish deb baholanadi va ta'lim tashkilotiga berilgan litsenziyaning bekor qilinishiga (faoliyatining to'xtatilishiga) asos bo'ladi.

7. Belgilansinki:

(a) 2025/2026 o'quv yilidan boshlab ta'limning sirtqi shakliga qabul tugatilib, kunduzgi ta'limdan boshqa muqobil ta'lim shakllari bo'yicha qabul kvotalari bosqichma-bosqich oshirib boriladi;

(b) 2025/2026 o'quv yilidan boshlab:

(i) oliy ta'lim tashkilotlarining muqobil ta'lim shakllari bo'yicha umumiy qabul kvotasini kunduzgi ta'lim shakli qabul natijasining 50 foizidan oshirishga yo'l qo'yilmaydi;

(ii) magistratura bosqichida muqobil ta'lim shakllari asosida ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlashga ruxsat beriladi;

(iii) oliy ta'lim tashkilotlarida muqobil ta'limning kredit-modul tizimiga asoslangan maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim shakli (part-time education) bo'yicha o'qitishni yo'lga qo'yishga ruxsat beriladi;

(iv) muqobil ta'lim shakllariga talabalarni belgilangan me'yordan ortiqcha qabul qilish litsenziya talab va shartlarini qo'pol ravishda buzish deb baholanadi hamda litsenziyani bekor qilish uchun asos hisoblanadi;

(v) idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar har bir ta'lim tashkiloti tarkibida umumiy shtatlar doirasida ichki ta'lim sifati auditini amalga oshirishga mas'ul ichki ta'lim sifati nazorati bo'limlari tashkil etiladi.

V. Farmon ijrosini tashkil etish, ta'minlash va nazorat

8. Ta'lim sifatini ta'minlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" [3-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

9. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

(a) bir oy muddatda Vazirlikning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan Agentlik tomonidan taqdim qilingan hisob-kitoblarga asosan Agentlikni zarur mebel, jihoz va kompyuter vositalari bilan ta'minlasin;

(b) ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. Mazkur Farmon ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q. Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2025-yil 5-may,
PF-76-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2025-yil 5-maydagi
PF-76-son Farmoniga
1-ILOVA

Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining asosiy faoliyat yo'nalishlari

Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining asosiy faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

(a) idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini (keyingi o'rinlarda — ta'lim tashkilotlari) tashqi baholashni amalga oshirish;

(b) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati madaniyatini shakllantirish, ichki sifat nazorati mezonlari va tartiblarini takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berish;

(v) ta'lim sifatini baholash mezonlari va usullarini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda ishlab chiqish hamda takomillashtirish;

(g) ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini o'rganish yuzasidan ilmiy va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda so'rovnomalar o'tkazish;

(d) ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishida xalqaro aloqalarni kengaytirish, sifatni baholash sohasidagi xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish hamda milliy akkreditatsiya tizimining xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash;

(e) ta'lim sifatini baholash bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida jamoatchilik va manfaatdor tomonlar ishtirokida yillik hisobotlarni e'lon qilib borish;

(j) ta'lim sohasidagi davlat dasturlari va strategiyalarida belgilangan maqsadli ko'rsatkich va natijalarga erishilishini tahlil qilish hamda tavsiyalar ishlab chiqish;

(z) ta'lim va ilmiy-tadqiqot sohasini rivojlantirish hamda ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va istiqbolli tashabbuslarni ilgari surish.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2025-yil 5-maydagi
PF-76-son Farmoniga
2-ILOVA

Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi faoliyatini tashkil etish tartibi

1. Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) faoliyatining huquqiy asoslari:

(a) Agentlik o'z faoliyati doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hisobdor bo'ladi;

(b) Agentlik o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida boshqa davlat organlari, tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi;

(v) Agentlik ta'lim sohasini isloh qilish holati, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan omillar va ularni bartaraf etish yo'llari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga axborot kiritib boradi;

(g) davlat organlari rahbarlari Agentlikka har tomonlama ko'maklashadi, shu jumladan, uning so'roviga ko'ra markaziy apparat va tizim tashkilotlari xodimlarining oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni saqlab qolgan holda ekspert sifatida yuborilishini ta'minlaydi;

(d) o'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, malakalarni baholash sohalarida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va ta'lim jarayoniga oid davlat ta'lim standartlari (talablari) loyihalari majburiy tartibda Agentlik bilan kelishiladi;

(e) Agentlik o'z vakolatlari doirasida ta'lim sifatini baholash maqsadida ta'lim tashkilotlari hududi va binolariga belgilangan tartibda kirishga va hujjatlar bilan tanishishga haqli;

(j) Agentlikka O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi;

(z) Agentlik "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan, xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

2. Agentlikka o'z vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi huquqlar beriladi:

(a) davlat organlari va tashkilotlaridan, shuningdek, respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini orqali zarur statistik, tahliliy hamda boshqa ma'lumotlarni olish;

(b) o'z vazifalarini amalga oshirish uchun davlat organlari va tashkilotlaridan zarur ma'lumotlarni bepul, jumladan, "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiya platformasi orqali olish;

(v) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlaridan (HEMIS, EMIS) va oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimidan to'siqsiz foydalanish;

(g) davlat organlari va tashkilotlariga, jumladan, ta'lim tashkilotlariga ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritish;

(d) o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida tajribali xorijiy va mahalliy ekspertlarni hamda nodavlat (xususiy) tashkilotlarni to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida, jumladan, outsorsing shaklida yollash;

(e) jalb qilingan xorijiy va mahalliy ekspertlarga ish haqini milliy yoki chet el valyutasida, shu jumladan, mablag'larni ularning xorijdagi hisobvaraqlariga o'tkazish orqali to'lash;

(j) mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy holat va qonunchilikdagi o'zgarishlar hamda jahon ta'lim makonidagi zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib, kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish talab va mezonlarini yangilab borish;

(z) ta'lim sifatini ta'minlash, akkreditatsiya, reyting va boshqa masalalar yuzasidan xalqaro va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzish.

3. Agentlikning 62 ta shtat birligi quyidagi shtat birliklari hisobidan shakllantiriladi:

(a) tugatilayotgan "Ta'lim sohasidagi loyihalar markazi" loyiha ofisining mavjud 30 ta shtat birligi;

(b) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 4 ta, Innovatsion rivojlanish agentligining 3 ta, Bilim va malakalarni baholash agentligining 3 ta boshqaruv shtat birligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisining 22 ta shtat birligi.

4. Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti Agentlik tarkibiga o'tkaziladi.

5. Agentlikning nizomi va tuzilmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Agentlik direktori maqomi, mehnatga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish shart-sharoitlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi o'rinbosariga tenglashtiriladi.

Agentlik direktori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan ikki nafar o'rinbosarga ega bo'ladi.

Agentlik direktori o'rinbosarlari va xodimlari mehnatga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish, tibbiy xizmat ko'rsatish shart-sharoitlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligiga tenglashtiriladi.

Agentlik direktoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishgan holda, zarur hollarda, Agentlikning tasdiqlangan tuzilmasiga xodimlarining belgilangan umumiy soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi beriladi.

6. Agentlik faoliyatini moliyalashtirish:

(a) O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

(b) Agentlikning asoslangan takliflariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi hisobidan ajratiladigan mablag'lar;

(v) akkreditatsiyadan o'tkazish, shuningdek, shartnoma asosida boshqa xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

(g) Agentlikning budjetdan tashqari mablag'lari, shu jumladan, vaqtincha bo'sh turgan budjetdan tashqari mablag'larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan tushgan mablag'lar;

(d) homiylik va grantlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2025-yil 5-maydagi
PF-76-son Farmoniga
3-ILOVA

Ta'lim sifatini ta'minlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha

"YO'L XARITASI"

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
I. Ta'limda sifatni ta'minlashning tashkiliy masalalari					

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
1.	Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik) faoliyatini yo'lga qo'yish.	<p>1. Agentlikning ta'sis hujjatlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish.</p> <p>2. Agentlikni joylashtirish uchun ma'muriy binoni operativ boshqaruv huquqi asosida ajratish.</p>	<p>2025-yil may</p> <p>2025-yil may</p>	—	<p>Agentlik,</p> <p>Adliya vazirligi</p> <p>Toshkent shahri hokimligi,</p> <p>Davlat aktivlarini boshqarish agentligi</p>
2.	Agentlikni zarur mebel, jihoz, kompyuter va boshqa zaruriy vositalar bilan ta'minlash.	<p>1. Agentlikni zarur mebel, jihoz, kompyuter va boshqa zaruriy vositalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>2. Agentlik tomonidan taqdim qilingan hisob-kitoblarga asosan Agentlikni zarur vositalar bilan ta'minlash.</p>	2025-yil iyun	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining budjetdan tashqari mablag'lari	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Agentlik
3.	Agentlikka xizmat va navbatchi avtotransport vositalari uchun limit ajratish.	<p>1. Agentlik uchun 4 ta xizmat avtotransport vositasi, shu jumladan, 3 ta shaxsiy biriktirilgan va 1 ta navbatchi avtotransport vositasini belgilangan tartibda xarid qilish.</p> <p>2. Agentlikka avtotransport vositalarini saqlash uchun limit ajratish.</p>	2025-yil iyun	Davlat budjeti mablag'lari	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Agentlik
II. Ta'lim sifatni ta'minlash jarayonlarini takomillashtirish					

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
4.	Ta'lim tizimi samaradorligini baholash va ta'lim sifatini monitoring qilish bo'yicha axborot tizimlarini ishlab chiqish.	<p>1. Ta'lim jarayonida sifatni ta'minlashga qaratilgan barcha statistik va tahliliy ma'lumotlarni ochiq va shaffof tarzda aks ettiruvchi Agentlikning rasmiy veb-sayti va tegishli platformalarning konsepsiya va texnik topshiriqlarini ishlab chiqish.</p> <p>2. Ishlab chiqilgan takliflar asosida Agentlik veb-sayti va tegishli platformalarni yaratish uchun zarur mablag'larni ajratish.</p> <p>3. Agentlik veb-sayti va tegishli platformalarni ishlab chiqish va ishga tushirish.</p> <p>Bunda:</p> <p>davlat akkreditatsiyasi va reyting tizimini qo'llab-quvvatlovchi elektron platformalarni subdomen shaklida ishga tushirish;</p> <p>tegishli davlat va nodavlat tashkilotlarining platformalari va ta'limni boshqarish axborot tizimlari bilan ma'lumotlar almashish uchun integratsiya qilish;</p> <p>tegishli reyestrlarni yuritish va jamoatchilik uchun ochiq ma'lumotlarni olishda qulayliklar yaratish;</p> <p>saytning samaradorligini oshirish va undagi ma'lumotlarni uzluksiz yangilab borishni yo'lga qo'yish.</p>	2025-yil iyun-iyul 2025-yil iyul 2026-yil yanvar	Oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi, Davlat budjeti, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donorlar mablag'lari	Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, manfaatdor respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari
5.	O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari (ta'lim tashkilotlari)da sifat madaniyatini shakllantirish.	Har bir ta'lim tashkiloti tarkibida umumiy shtatlar doirasida ichki ta'lim sifati auditini amalga oshirishga mas'ul ichki ta'lim sifati nazorati bo'limi yoki shtatini joriy etish.	2025-yil avgust	—	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, tasarrufida ta'lim tashkilotlari mavjud vazirlik va idoralar
6.	O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, malakalarni baholash sohalarida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar samaradorligini oshirish.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyhasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjat loyihalarini Agentlik bilan kelishish majburiy etib belgilanishini ta'minlash.	2025-yil iyun	—	Adliya vazirligi, Agentlik

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
7.	Ta'lim tashkilotlarida sifatni ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish.	<p>1. Sifatni ichki ta'minlash bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va ta'lim tashkilotlariga elektron shaklda tarqatish.</p> <p>2. Ta'lim tashkilotlarining ta'lim sifatiga mas'ul xodimlari uchun seminar-treninglar tashkil etish.</p>	<p>2025-yil sentabr</p> <p>2025-yil oktabr-noyabr</p>	<p>Ta'lim tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donorlar mablag'lari</p>	<p>Agentlik,</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, tasarrufida ta'lim tashkilotlari mavjud vazirlik va idoralar</p>
8.	Ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning ekspertlar korpusini shakllantirish.	<p>1. Ta'lim turlari bo'yicha ekspertlar bazasini shakllantirish.</p> <p>2. Ekspertlarni tayyorlash va kasbiy salohiyatini oshirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.</p> <p>3. Kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasiga jalb qilinadigan ekspertlarni tashqi baholash bo'yicha malakasini oshirish.</p> <p>4. Malaka oshirish kurslari yakuniy natijalari bo'yicha ekspertlar korpusini shakllantirish.</p>	Belgilangan reja-grafikka muvofiq	<p>Ta'lim tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donorlar mablag'lari</p>	<p>Agentlik,</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p>
9.	Davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini aniqlash.	<p>1. Milliy reytingda ishtirok etuvchi ta'lim tashkilotlari tomonidan reytingni aniqlash uchun Agentlikning maxsus axborot tizimiga yuklangan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini tekshirish va qabul qilish.</p> <p>2. Barcha ta'lim tashkilotlari tomonidan yuklangan ma'lumotlarni mezonlarga muvofiq tahlil qilish va baholash.</p> <p>3. Baholash natijalari asosida ta'lim tashkilotlari reytingini Agentlik saytida e'lon qilish, reyting natijalarini asoslash bo'yicha izohlar va yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berish.</p> <p>4. Milliy reytingni aniqlash mezonlari va baholash metodikasini yetakchi xalqaro reyting tashkilotlarining baholash indikatorlari bilan muvofiqlashtirib borish.</p>	Reja bo'yicha muntazam ravishda	—	<p>Agentlik,</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi</p>
10.	Ta'lim tashkilotlari reytingini yurituvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.	<p>1. Ta'lim tashkilotlari reytingini yurituvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatini o'rganish.</p> <p>2. Ta'lim tashkilotlari reytingini yurituvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.</p>	<p>2026-yil fevral</p> <p>2026 — 2028-yillar</p>	<p>Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donorlar mablag'lari, Agentlikning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari</p>	<p>Agentlik,</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,</p> <p>Tashqi ishlar vazirligi</p>

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
11.	Respublikada faoliyat yuritishga ruxsat beriladigan akkreditatsiya tashkilotlarining reyestrini yuritish.	<p>1. Respublikada faoliyat yuritishga ruxsat beriladigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlarini reyestrga kiritish uchun asosiy shartlarni belgilash.</p> <p>2. Respublikada faoliyat yuritishga ruxsat beriladigan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Reyestrda kiritilgan tashkilotlar faoliyatini muntazam audit va monitoring qilib borish.</p>	Reja bo'yicha muntazam ravishda	—	Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
12.	Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish choralari ko'rish.	<p>1. Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatini o'rganish.</p> <p>2. Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish maqsadida ular bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish.</p>	2026 — 2028-yillar	Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donorlar mablag'lari, Agentlikning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari	Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Adliya vazirligi
13.	Kvalifikatsiya va diplomlarni o'zaro tan olish to'g'risidagi xalqaro bitim va konvensiyalarni ratifikatsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	<p>1. Xalqaro bitim va konvensiyalarning shartlari va majburiyatlarini o'rganish.</p> <p>2. Xalqaro bitim va konvensiyalar shartlaridan kelib chiqib ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>3. Xalqaro bitim va konvensiyalarni ratifikatsiya qilish bo'yicha takliflarni vakolatli organga berish.</p>	2026 — 2028-yillar	—	Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, Adliya vazirligi
14.	O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.	<p>1. O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatiga ta'sir qilayotgan omillarni o'rganish.</p> <p>2. Ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.</p>	2025-yil oktabr 2025-yil dekabr	Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donorlar mablag'lari	Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
15.	Kasbiy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq ravishda baholash va monitoringni amalga oshirish uchun ta'lim sifatini ta'minlashga doir sifat indikatorlarini ishlab chiqish.	<p>1. Ta'lim sifatini baholash indikatorlarini ishlab chiqish bo'yicha mas'ul ishchi guruhni shakllantirish.</p> <p>2. Sifat indikatorlarini ishlab chiqish jarayonida ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlar (ESG, EQAVET, ISO va boshqalar)ni o'rganish va tahlil qilish.</p> <p>3. Sifat indikatorlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p>	2025-yil iyun 2025-yil sentabr 2025-yil dekabr	Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donorlar mablag'lari	Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, manfaatdor respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
16.	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim sifatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	1. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning barcha shakllariga qabul qilish tartibi bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish. 2. Ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan mavjud ilmiy kengashlar faoliyatini ilg'or xorijiy tajriba asosida tahlil qilish.	2025-yil dekabr	—	Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi
III. Sohaga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish					
17.	Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqqan holda tashqi sifat nazoratini tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	1. "Ta'lim to'g'risida"gi va "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash. 2. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan reglamentga muvofiq manfaatdor respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari bilan kelishish hamda Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2025-yil iyul 2025-yil noyabr	—	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Agentlik, manfaatdor respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari
18.	Ta'lim sohalari kesimida maxsus akkreditatsiyalash mezonlarini ishlab chiqish.	1. Turli soha mutaxassislaridan iborat ishchi guruh tuzish. 2. Akkreditatsiya mezonlarini belgilash bo'yicha xorijiy tajribani o'rganish. 3. Ta'lim sohalari kesimida akkreditatsiya mezonlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2025-2026-yillarda	Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donorlar mablag'lari, Agentlikning budjet va budjetdan tashqari mablag'lari	Agentlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Adliya vazirligi, manfaatdor respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari
19.	Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun to'lovlar miqdorlarini belgilash.	1. To'lovlar miqdorlarini Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda ishlab chiqish. 2. To'lov miqdorlarini belgilashni nazarda tutuvchi me'yoriy hujjatni belgilangan tartibda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish.	2025-yil Iyun-iyul	—	Agentlik, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Adliya vazirligi

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmlari	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas'ul ijrochilar
20.	Oliy ta'lim tashkilotlarida maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha kadrlar tayyorlash tartibini ishlab chiqish.	<p>1. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida maqbullashtirilgan kunduzgi ta'lim shaklida kadrlar tayyorlash tartibi bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan tartibda manfaatdor respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishish.</p> <p>3. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini belgilangan reglamentga muvofiq Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	<p>2025-yil iyun</p> <p>2025-yil iyul</p> <p>2025-yil avgust</p>	—	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,</p> <p>Agentlik,</p> <p>manfaatdor respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalari</p>

Izoh: normativ-huquqiy hujjat loyihalari tartibga solish predmetidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqilishi yoki yagona hujjatga birlashtirilishi mumkin. Ikki yoki undan ortiq bandlar birlashtirilganda ularni ijro etish uchun belgilangan eng kech muddat ijro muddati etib belgilanadi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2025-y., 06/25/76/0414-son)



**Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz**

100 mln
so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha
Kredit muddati: 2-48 oygacha

